Barqaror rivojlanishning asoslari XVII va XVIII asrlarda Yevropada ishlab chiqilgan barqaror o'rmon xo'jaligi to'g'risidagi g'oyalarga borib taqaladi. Angliyada o'rmon resurslarining kamayishi va bu borada xavotirning ortishi natijasida, John Evelyn 1662-yilda yozgan „*Sylva*“ nomli asarida shunday degan edi: „Tabiiy resurslardan ortiqcha foydalanishni oldini olish uchun har bir yer egasi daraxt ekishga o'zining milliy burchi sifatida qarashi kerak“. 1713-yilda Saksoniya saylovchisi Fridrix Avgust I xizmatidagi yirik kon ma'muri Hans Karl fon Karlovits o'rmon xo'jaligi bo'yicha 400 sahifali „*Sylvicultura oeconomica*“ asarini nashr etdi. Evelin va Fransiya vaziri Jan-Batist Kolbertning g'oyalaridan kelib chiqqan holda, fon Karlovits o'rmonlarni barqaror hosilni ta'minlash maqsadida boshqarish tushunchasini ishlab chiqdi. Uning asarlari Aleksandr fon Gumboldt va Georg Lyudvig Xartig kabi olimlarga ta'sir ko'rsatdi. Bu esa o'rmonchilik fanining rivojlanishiga olib keldi. O'rmon boshqaruvining resurslardan oqilona foydalanish g'oyasiga asoslangan yondashuvi Gifford Pinchotga ham ta'sir qildi. Pinchot AQSh O'rmon Xizmatining birinchi rahbari edi. Shuningdek, u Aldo Leopoldga ham ta'sir ko'rsatdi. Leopoldning yer etikasi 1960-yillarda atmosferani himoya qilish harakatining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) barqaror taraqqiyotning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatlarining o'zaro bog'liqligini ta'kidlab, global, milliy va mahalliy darajalarda keng qamrovli siyosat va amaliyotni targ'ib qiladi. Majburiy xususiyatga ega bo'lmasada, BRM global muhokamalarga, siyosiy kun tartiblariga va tashkiliy ustuvorliklarga sezilarli ta'sir ko'rsatdi, biroq tub o'zgarishlar hali ham cheklangan darajada qolmoqda. 2030-yilgacha bu ulkan maqsadlarga erishish uchun hamkorlikdagi moliyalashtirish, texnologik innovatsiyalar va kuchaytirilgan global sheriklik hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. www.trend.az/casia/uzbekistan/2438516.htm
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –T.:”O‘zbekiston” nashiryoti. –2021-y. –461 b.
3. Вебер, А., Хоутеллінг, Г., Кристаллер, В., Куклінський, А., & Робсон, П. Теоретико-методологічні основи регіоналістики.
4. <https://dtai.tsue.uz/index.php/dtai/article/view/v2i424>
5. Deutsche Welle, Deutsche. „Why Biodiversity Loss Hurts Humans as Much as Climate Change Does“. Ecowatch (2019-yil 6-may). Qaraldi: 2019-yil 10-may.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14784795>

INGLIZ VA O‘ZBEK FE‘LLARINING KONSTRAKTIV TADQIQI, ULARNING TASNIFI VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Otaxonova O‘g‘iloy Umid qizi

Urganch Ranch texnologiya universiteti 1- bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola ingliz va o‘zbek fe‘llarining tasnifi hamda grammatik xususiyatlarini tahlil qilishga, ochib berishga qaratilgan. Konstraktiv ya’ni taqqoslash tilshunoslik yondashuvi asosida fe‘l turlari, zamonlar, aspektlar, mayllar va sintaktik xususiyatlar ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda ingliz tilining yordamchi fe‘llarga va qat’iy so‘z tartibiga asoslanishi, o‘zbek tilining esa agglutinative (so‘zlar asosiga turli xil grammatik qo‘shimchalar qo‘shilishi) tuzilmaga asoslanganligi namoyon bo‘ladi. Ushbu tadqiqot ayniqsa tilshunoslar va o‘qituvchilar uchun foydalidir.

Kalit so‘zlar : *Ingliz tili, o‘zbek tili, fe‘llarning tasnifi, grammatik xususiyatlar , kontrastiv tilshunoslik, agglutinativ til, yordamchi fe‘llar , zamonlar, mayllar, aspektlar, morfologiya, sintaksis;*

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена изучению классификации и грамматических особенностей английских и узбекских глаголов. В рамках контрастивного лингвистического подхода анализируются типы глаголов, времена, аспекты, наклонения и синтаксические особенности. В исследовании подчеркивается, что английский язык основывается на вспомогательных глаголах и строгом порядке слов, тогда как узбекский язык характеризуется агглютинативной структурой и использованием аффиксов. Это исследование особенно полезно для лингвистов и преподавателей.

Ключевые слова: *Английский язык, узбекский язык, классификация глаголов, грамматические особенности, контрастивная лингвистика, агглютинативный язык, вспомогательные глаголы, времена наклонения, аспекты, морфология, синтаксис;*

ANNOTATION

This article is dedicated to the study of the classification and grammatical features of English and Uzbek verbs. Using a contrastive linguistic approach, verb types, tenses, aspects, moods, and syntactic features are analyzed. The study highlights the reliance of English on auxiliary verbs and strict word order, while Uzbek is based on an agglutinative structure and the use of affixes. This research is particularly useful for linguists and educators.

Keywords: *English language, uzbek language ,verb classification ,grammatical features, contrastive linguistics, agglutinative language, auxiliary verbs, tenses, moods, aspects, morphology, syntax.*

Kirish

Fe'l gap bo'laklarining asosiy qismlaridan biri bo'lib, harakat, holat yoki voqealarni ifodalaydi. Ularning tasnifi va grammatik xususiyatlari har qanday tilning sintaktik va semantikasi uchun muhim ahamiyatga ega. Fe'llar nafaqat tilning grammatik tuzilishini shakllantiradi, balki ularning ishlatilishi tilning madaniy, itimoiy va kommunikativ jihatlarini ham aks ettiradi. Har bir til o'z fe'l tizimi orqali o'zining tilshunoslik xususiyatlarini namoyon etadi va bu farqlar o'rganilayotganda tilning o'ziga xosligini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ingliz va o'zbek tillari fe'llarining grammatik tizimi, ularning morfologik va sintaktik strukturalari turlicha bo'lishi mumkin. Ingliz tili ko'p hollarda yordamchi fe'llarga, qat'iy so'z tartibiga va vaqtni ifodalash uchun yordamchi elementlarga tayanadi. O'zbek tili esa agglutinativ til bo'lib, fe'lning grammatik kategoriyalari qo'shimchalar orqali ifodalanadi, ya'ni fe'llarga qo'shimchalar qo'shib, harakatni yoki holatni o'zgartirish mumkin. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi esa o'zbek va ingliz fe'llarini qiyosiy tahlil qilishdir. Maqolaning dolzarbligi shundaki, u o'zbek yoki ingliz fe'llarini ikkinchi til sifatida o'rgatishda duch keladigan qiyinchiliklarni aniqlashga va bartaraf etishga yordam beradi. Tadqiqot fe'l turlari, grammatik kategoriyalar (zamon, aspekt, mayl) va fe'lning sintaktik xususiyatlariga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Tadqiqot qiyosiy tahlil metodi asosida olib boriladi va ushbu usul ingliz va o'zbek fe'llarining grammatik tuzilmalaridagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash va tahlil qilish imkonini beradi. Ikkala tilni taqqoslash orqali har bir tilning fe'l tasnifi, zamonlar, aspektlar, mayllar va sintaktik xususiyatlarini tushinib olish mumkin. Masalani aniq va to'liq yoritib berish uchun ingliz va o'zbek tillariga oid grammatik manbalar, ilmiy maqolalar va mavjud tilshunoslik adabiyotlari ishlatilgan. Ushbu manbalar fe'lni qay yo'sinda ishlatish, grammatik qoidalar va fe'lning qiyoslash shakllari bo'yicha keng qamrovli ma'lumotlar taqdim etadi. Bu ma'lumotlar ichidan faqat ikki tilning taqqoslashiga oid asosiy ma'lumotlar yig'ib olindi va har ikkala tilning korpuslari yordamida fe'llar va grammatik shakllariga oid misollar berildi. Shuningdek tadqiqotda ingliz va o'zbek fe'llarini solishtirish uchun uchta asosiy mezonlar belgilandi. Ulardan birinchisi bu fe'llarning har ikkala tilda qanday tasniflanishi va taqqoslanishi. Ikkinchisi grammatik kategoriyalardir, masalan, zamon, aspekt, mayl va nisbat kabi grammatik kategoriyalar solishtirildi va ushbu kategoriyalar har ikki tilda vaqtni va harakatga nisbatan munosabati ifodalandi. Oxirgisi esa bu morfologik va sintaktik xususiyatlar. Bu mezon bo'yicha fe'llarning morfologik tuzilishi tahlil qilindi, masalan, zamon, aspekt va maylning affikslar orqali qanday ifodalanishi. Shuningdek, sintaktik xususiyatlar, ya'ni so'z tartibi va fe'lning ega bilan moslashuvi ham ko'rib chiqildi. Taqqoslashni osonlashtirish uchun ingliz va o'zbek tillaridan fe'l shakllari va ularning grammatik xususiyatlarini ko'rsatuvchi bir nechta jadvallar yaratildi. Har ikkala tildan misollar keltirilib, bu jadvallarga joylashtirildi, bu esa ikki til o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklarni aniq ko'rsatdi. Tahlil fe'l tasnifi, zamonlar, aspektlar, mayllar va sintaktik strukturalarning har ikki tilda qanday amalga oshirilishini ko'rsatishga qaratildi.

Natijalar

Ingliz va o'zbek fe'llarining grammatik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilingan holda quyidagi natijalarga keldi:

1. Fe'l tasnifi bo'yicha - ingliz tilida fe'llar ikki turga bo'linadi, qoidalarga mos (regular) va qoidalarga mos bo'lmagan (irregular). Masalan, play → played (regular) va go → went (irregular). O'zbek tilida esa fe'llar oddiy va murakkab turlarga ajratiladi. Oddiy fe'llar mustaqil ishlatiladi (o'qimoq), murakkab fe'llar esa yordamchi so'zlar yordamida hosil qilinadi (o'qib bo'lmoq).
2. Zamonlar - ingliz tilida zamonlar va aspektlar juda aniq farqlanadi. Masalan, I read, I am reading, I have read va I have been reading. O'zbek tilida esa zamonlar fe'lga qo'shimchalar qo'shish orqali bir biridan farqlanadi va ifodalanadi. Misol uchun, hozirgi zamon (men o'qiyman), o'tgan zamon (men o'qidim), va kelasi zamon (men o'qiyman). Ingliz tilidan farqli ravishda, o'zbek tilida aspekt tizimi mavjud emas va u kontekst orqali tushuniladi.
3. Mayllar - ingliz tilida fe'llar uch asosiy maylga ega, ular hikoya (She reads books), buyruq (Read the book!), va istak mayli (If I were you, I would read the book). O'zbek tilida mayl maxsus qo'shimchalar yoki yordamchi so'zlar yordamida ifodalanadi. Masalan, tasdiq (Men o'qiyman), inkor (Men o'qimayman), va istak – shart mayli (Men o'qisam kerak).
5. Ikki tilning so'z tartibi bo'yicha - ingliz tilida qat'iy so'z tartibi (SVO: She reads books) mavjud bo'lib, so'zlarning o'zaro ma'nosini aniqlaydi. O'zbek tilida esa so'z tartibi nisbatan erkin bo'lib, odatda ega-aniqlovchi-fe'l (SOV) tartibiga amal qilinadi (U kitob o'qiyapti).
7. O'zbek va ingliz tillarining morfologik xususiyatlari - ingliz tilida grammatik ma'nolar ko'pincha yordamchi so'zlar orqali ifodalanadi va qo'shimchalar kamroq ishlatiladi. O'zbek tilida esa grammatik ma'nolar agglutinativ tizim asosida qo'shimchalar orqali ifodalanadi. Har bir qo'shimcha muayyan grammatik ma'noni ifodalaydi. Bu natijalar ingliz va o'zbek fe'llarining grammatik tizimlari o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni ko'rsatib beradi va quyidagi jadval yanada yoritib beradi:

Mezonlar	Ingliz tili	O'zbek tili
Fe'l tasnifi	a) <i>Regular</i> : play- played b) <i>Irregular</i> : go- went	a) <i>Oddiy fe'llar</i> : o'qimoq b) <i>Murakkab fe'llar</i> : o'qib bo'lmoq
Zamonlar	a) <i>simple</i> : I read, b) <i>continuous</i> : I am reading c) <i>perfect</i> : I have read, d) <i>perfect continuous</i> : I have been reading.	a) <i>hozirgi zamon</i> : men o'qiyman b) <i>o'tgan zamon</i> : men o'qidim c) <i>kelasi zamon</i> : men o'qiyman
So'z tartibi	<i>Subject+verb+object(qat'iy)</i>	<i>Subject+object+verb(erkin)</i>
Yordamchi vositalar	a) <i>Yordamchi fe'llar</i> : do, have, will b) <i>Modallar</i> : can, must, should	<i>asosan agglutinativ qo'shimchalar tizimi orqali ifodalanadi: o'qi-di (o'tgan zamon), o'qi-yap-man (hozirgi zamon).</i>

Muhokama

Ikkala tilning ham umumiy grammatik jihatlari bo'lsada, ularning tuzilishi va qo'llanilishi jihatdan ancha farqlanadi. Ingliz tili yordamchi va qat'iy so'z tartibiga tayanadi, o'zbek tili esa agglutinativ morfologiyaga asoslanadi va so'z tartibi jihatdan ham erkinroqdir. Ingliz tili o'rganuvchilari uchun fe'l aspektlari, zamonlar va fe'llar turlari qiyinchilik tug'dirishi mumkin, o'zbek tili o'rganuvchilariga esa fe'l qo'shimchalari tizimini tushunishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin.

Xulosa

Ushbu tadqiqot ingliz va o'zbek fe'llarining tasnifi va grammatik xususiyatlari orasidagi o'xshashlik va farqlarni ko'rsatadi. Har ikkala til o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu inson tilining boyligi va xilma-xilligini aks ettiradi. Ushbu xulosalar tilshunoslar va o'qituvchilar uchun samarali o'qitish usullarini ishlab chiqishda foydalidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Huddleston, R., & Pullum, G. K. (2002). *The Cambridge Grammar of the English Language*. Cambridge University Press.
2. Crystal, D. (2010). *The Stories of English*. Penguin Books.
3. Swan, M. (2005). *Practical English Usage*. Oxford University Press.
4. Muminov, A. (2018). *O‘zbek Tili Grammatikasi*. Toshkent.
5. Rakhmatullayev, S. (1980). *O‘zbek Tili Grammatikasi*. Toshkent.
6. Palmer, F. R. (1986). *Mood and Modality*. Cambridge University Press.
7. Quirk, R., Greenbaum, S., Leech, G., & Svartvik, J. (1985). *A Comprehensive Grammar of the English Language*. Longman.
8. Dixon, R. M. W. (2010). *Basic Linguistic Theory: Grammatical Topics*. Oxford University Press.
9. Comrie, B. (1976). *Aspect: An Introduction to the Study of Verbal Aspect and Related Problems*. Cambridge University Press.
10. Brown, K., & Miller, J. (2013). *The Cambridge Dictionary of Linguistics*. Cambridge University Press.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14784860>

O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA NAFS MAVZUSI VA UNING TADRIJI

Jo‘rayeva Muhabbat Amonovna

BuxMTI akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

BuxDU mustaqil tadqiqotchisi

mux0711@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mumtoz adabiyotda nafs talqini va uni Yusuf Xos Hojib va Ahmad Yassaviy ijodida tarbiyaviy ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Nafsnizulmatga qiyoslagan shoir o‘z lirik qahramoniga ibodatni chora qilib ko‘rsatadi. Adiblar asarlaridagi nafs obrazi, ko‘pincha, insonni malomatga qo‘yuvchi vijdon azobi ma‘nosida qo‘llaniladi va nafsniz eng katta dushman sanaydi. Shoirlar nafsga yo‘l bermaslikni ta‘kidlar ekan, o‘z nafsini yenga olgan, sog‘lom jism-u tanga ega ekanligiga-da shukrona keltirib yashay olgan inson haqiqiy baxtli insondir deb aytishadi.*

Kalit so‘z: *tasavvuf, nafs, Qur‘oni karim, shayton, fano, oshiq, so‘fiy, axloq, sabr-qanoat, orif.*

Annotation. *This article discusses the interpretation of the self in classic literature and its educational significance in the works of Yusuf Khos Hajib and Ahmed Yassavi. Comparing lust to darkness, the poet shows prayer as a measure to his lyrical hero. The image of lust in the works of writers is often used in the sense of the torment of conscience that blames a person and considers lust as the greatest enemy. Poets emphasize not to indulge in selfishness, and say that a person who overcomes his selfishness and is able to live with gratitude for having a healthy body is a truly happy person.*

Key words: *Sufism, lust, Holy Qur‘an, devil, death, lover, Sufi, morality, patience, contentment, scholar.*

Аннотация. В данной статье рассматривается интерпретация Я в классической литературе и ее воспитательное значение в произведениях Юсуфа Хоса Хаджиба и Ахмеда Яссави. Сравнивая похоть с тьмой, поэт показывает молитву как меру своему лирическому герою. Образ похоти в произведениях писателей часто используется в смысле мук совести, обвиняющей человека и считающей похоть величайшим врагом. Поэты подчеркивают, что нельзя предаваться эгоизму, и говорят, что человек, преодолевший свой эгоизм и способный жить с благодарностью за здоровое тело, является по-настоящему счастливым человеком.

Ключевые слова: Суфизм, похоть, Священный Коран, дьявол, смерть, любовник, суфий, мораль, терпение, довольство, учёный.

Kirish. O‘zbek mumtoz adabiyotida talqin etilgan mavzular tasavvuf bilan bog‘liq. Xususan, bu axloqiy mavzular ifodasida yorqin kuzatiladi. Yusuf Xos Hojib, Yassaviy ijodida nafs talqinini kuzatish mumkin. Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asarida qanoat timsoli sifatida O‘zg‘urmish obrazini tanlaydi. Ushbu qahramon hayotda har qanday sharoitga shukrona keltirib yashaydi. Toki bir kuni ular bergan narsasini ta’ma qilmasliklari uchun birovdan hech narsa olmaydi. Bir qornini to‘ygizsa, ikki kunga shu yetarli deya qanoat hosil qiladi. U shunchalar qanoatliki, bir juftgina kiyimi, bugunga yetar-yetmas non-suvi bo‘lsa-da, tinmay toat qilib, Allohga hamd aytib umr kechiradi:

Bo‘g‘uz bir to‘dusa eki kun barir,
Egin kedse bir to‘n eki yil qalir.
Ya’ni: Qorin bir to‘ysa, ikki kun o‘tar,
Kiyim-kechak ham bir juft – yilga yetar.¹

Shoir qanoat bilan yashash har bir insonning vazifasi ekanligini uqtirar ekan, bu foniy dunyoning aldamchi go‘zalliklariga mahliyo bo‘lib, asosiy maqsaddan chalg‘imaslik lozimligini ta’kidlaydi. Adib baxt-davlat ramzi bo‘lgan Oyto‘ldi obrazi orqali boylik va shodlik ramzi bo‘lib keladi. Binobarin, boylik ham, shodlik ham mangu emas: ular birda bor, birda esa yo‘q:

¹ Yusuf Xos Hojib .Qutadg‘u bilig. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. B.556 405-bet

Tutgan kishi menga solmasa jilov,
Kiyikdek qochib so‘ng bo‘lmam qayta ov
Baxt kelsa, mahkam tut, yo‘qsa to‘zadi,
Bergani rizqing, ol, yo‘qsa uzadi.

Yuqoridagi satrlarda ham qanoat nafsga qarshi qo‘yiladi. Yusuf Xos Hojib nafsni faqat ilm orqali yengish mumkinligini aytadi:

Bu nafsin ujuzla ag‘ir bolg‘a jan,
Bilig beg bo‘lub ko‘r uqush bolg‘a xan
(Nafsingga yo‘l berma, aziz bo‘lgan jon,
Bilim bek bo‘lsin-u, aql bo‘lgay xon).¹

Shoir nafsga yo‘l bermaslikni taʼkidlar ekan, O‘z nafsini yenga olgan, sog‘lom jism-u tanga ega ekanligiga-da shukrona keltirib yashay olgan inson haqiqiy baxtli insondir. Payg‘ambarlar, buyuk so‘fiylar hayotiga nazar solsak, ularning hatto boshiga kulfat kelgan damda ham shukrdan, qanoatdan yiroqlashmaganiga guvoh bo‘lamiz. Beqiyos sabr-u qanoat timsoliga aylangan Ayub alayhissalomning boshidan kechirganlari fikrimizning asosidir. Buni teran anglagan Xos Hojib o‘z zamondoshlari hamda kelajak avlodga qarata:

E ne‘mat idisi, shukr qil, egil,
E mehnat idisi, sabur qil, egil.²
Ey ne‘mat egasi, shukr qil, egil,
Ey mehnat egasi, sabr qil, egil.³

deya xitob qilmoqda. Agar shu chaqiriqqa amal qilib yashasagina edi, Firavn, Qorunlar taqdiri o‘zgacha bo‘lgan bo‘lardi. Ulardek shayton so‘zin mahkam tutguvchilar har bir jamiyatning og‘riqli nuqtasi, “og‘riq tishlari” hisoblanadi. Asarda O‘zg‘urmish vafoti tasviri juda ta’sirli aks ettirilgan. Qahramonning o‘lim oldidan qilgan nasihatlari, ayniqsa, diqqatga sazovordir.

¹ Yusuf Xos Hojib .Qutadg‘u bilig. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. B.556 450-bet

² Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. Toshkent: “Fan”, 1971. B.965 924-be

³ Yusuf Xos Hojib .Qutadg‘u bilig. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. B.556 534-bet

Jumladan, O‘zg‘urmish O‘gdulmishga hatto o‘limga ham sabr-qanoatda bo‘lish lozimligini, Alloh bitgan taqdiridan norizo bo‘lmaslik joizligini uqtiradi:

Sig‘it qilma artiq sabr qil o‘zung,

Bu ishni bayat idti kechkil so‘zung.¹

Yig‘i-sig‘i qilma sabr qil o‘zing,

Qat‘iy taqdir hukmi, noravo so‘zing.²

Yuqoridagi tahlillardan shuni xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Yusuf Xos Hojib qanoat istilohini bu dunyodan qo‘l yuvib, tarkidunyochilikni dasturilamal qilib olish, darveshlik maqomini egallash yoxud bir g‘orda go‘shanishlik qilish deb talqin qilmaydi, balki Alloh bergan barcha narsaga shukur qilib, hamd aytib, borida- yu yo‘g‘ida sabrdan yiroqlashmaslik fazilati sifatida tasvirlaydi. Bu esa ijodkorning naqshbandiylik tariqati g‘oyalarini qo‘llab quvvatlaganini anglatadi. Qanoat fazilatini o‘zida mujassam etish komil inson bo‘lish sari odimlayotgan mo‘min uchun bir pillapoyadir. Uni zabt etmay turib keyingi yuqori maqomotlarni egallash mumkin emas. Qanoatda bo‘lgan, nafs hiylasiga aldanmagan inson hech qachon to‘g‘ri yo‘ldan adashmaydi, bu dunyo baxtiga, u dunyo saodatiga muyassar bo‘ladi. Asarda boshqa ta‘limiy-axloqning asarlar kabi insonni barkamol etishning asosiy belgisi bu uning xushxulqligidir, deyiladi. Shuning uchun adib asarda axloqiy tarkibiy kismi sanalgan tilni tiyish, mol dunyoga muxabbat qo‘iishning oqibatlarini, saxovat va baxillik, kamtarlik, jinoyat yo‘lidan saklanish xaqida, xarom va xalollikning farzlari, ularni bir-biridan farklay olish, e‘tiqod va sadoqat kabi muhim masalalar ustida fikr yuritadi.

Ulug‘likka etsang unutmang o‘zing,

Agar atlas kiysang, unutmang bo‘zing.

Qora bosh yag‘isi qizil til turur,

¹ Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. Toshkent: “Fan”, 1971. B.965 902-bet

² Yusuf Xos Hojib .Qutadg‘u bilig. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. B.556 521-bet

Necha bosh edi u, yana ham eyur.

Ming er do'sting ersa o'qish ko'rmagil,

Bir er dushman ersa, ani ozlama.

Ulug'lar ne bersa, emasmen dema,

Ilig sur, og'iz ur, emasang ema.

Tiling bekta tutg'il tishing sinmasun,

Qolu chiqssa bekta tishing siyur.

Harislik ma erg'a yovuz xislat bo'l,

Harislik so'ng g'am, o'kinch hasrat ul.

Mumtoz adabiyotning yana bir zabardast vakillaridan biri bo'lmish Ahmad Yassaviyda nafs mavzusi alohida e'tiborga molikdir. Xoja Ahmad Yassaviy "Devoni hikmat"da asosida tasavvuf ta'limoti yotuvchi buyuk she'riyatni qoldirib ketdi. Jamiyat taraqqiyotini komil insonlar belgilaydi. Bunday orif zot, yetuk va barkamol shaxslarni dunyoga keltirishda tasavvuf maktabi tajribasining o'rnini katta. Sharq musulmon dunyosi tarixida shuhrat qozongan ideal shaxslarning, deyarli, barchasi tasavvuf ta'limotlaridan xabardor kishilar edilar. Ular tariqat arboblari bilan maslakdosh ham bo'lganlar. Ular ijod qilgan na'munalar soddaligi va insonga tez ta'sir qilishi sababli barchaning ko'ngliga yaqindir. Yassaviy she'riyatida dunyo obrazini ko'rishimiz mumkin. Adib bu ramzni turli ma'nolarda qo'llagan. Shularning biri dunyoning nafs timsoli edi. Yassaviy o'zi asos solgan Jahriya tariqatida bu dunyoga qarshi nafrat tuyg'usini kuchli bayon qiladi. She'riyati g'azablengan ruh holatini tasvirlab, dunyoni tark etish, zulmga chidash, ishq-muhabat va darveshning chin ibodati haqida fikr yuritadi. Nafs obrazining turli ma'nolarini talqin qilar ekanmiz, Yassaviy ijodidagi qarashlarni chetlab o'tolmaymiz. Shoir tarki dunyo qilish orqali inson ruhiyatini poklash yo'lidan boradi. Tarki dunyo deganda har qanday ortiqcha narsadan va yomon illatlardan voz kechishni nazarda tutadi.

Xirsgʻu havas, hasad va manmanlik, jismoniy talablar, lazzatparastlik timsoli nafs – shaytoniy hislarni jilovlash bilan yengiladi:

Dunyoparast, nojinslardan boʻyin tovla,
Boʻyin tovlab daryo boʻlib toshdim mano¹.

Yassaviy ijodida nafsga berilgan insonning oxiri qanday boʻlishi, va nafsni boshini vaqtida yanchish lozimligi koʻp satrlarda uqtiriladi:

Nafsim meni yoʻldan urib xor ayladi,
Termultirib xaloyiqqa zor ayladi.
Zikr ayturmay, shayon birla yor ayladi,
Hozirsen, deb nafs boshini sonchdim mano².

Nafsni qoʻlga olgan inson orif hisoblanadi. Yassaviy “Devoni hikmat”da orif maqomiga erishganligini oʻn uch yoshda, deb aytadi:

Oʻn uchimda nafs, havoni qoʻlga oldim,
Nafs boshigʻa yuz ming balo qormab soldim,
Takabburni oyoq ostida bosib oldim,
Oʻn toʻrtimda tufiq sifat boʻldim mano.³

Yassaviy ijodida nafs obrazi turli timsol-u tashbehlar asosida bezatilmaydi. Obrazning oʻzi tashxis asosida jonlantirilib, kurashuvchi tomon sifatida tasvirlangan:

Nafsim meni koʻp yugurtdi, Haqqa bormay,
Kecha-kunduz begʻam yurdim yoshim oqmay,
Hoy-u havas, muovanni oʻtqa yoqmay,
Purgʻam boʻlib yer ostigʻa kirdim mano.

Yassaviy ijodida dunyo va nafs obrazlari koʻpincha yonma-yon keladi. Zero nafs bu dunyoning hosilasidir. Bu dunyodan koʻngil uza olgan odamgina nafsini jilovlay oladi:

Ey bexabar, Haqqa koʻngil yugurtmading,

¹ Yassaviy. Devoni hikmat. –T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992. – B.20.

² Yassaviy. Devoni hikmat. –T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992. – B.22.

³ Yassaviy. Devoni hikmat. –T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992. – B.25.

Dunyo harom, ondin ko'ngil sovutmading,
Nafsdin kechib, Alloh sari to'lg'onmading,
Bu nafs uchun zor-u hayron bo'ldim mano¹.

Nafs shaytonning ishidir. Shu sababli ham “nafsi shayton” iborasi tasavvuf adabiyotida butun holda keladi, Yassaviy nafsning domiga ilingan kimsani burnidan ip o'tkazilgan tuyaga mengzaydi:

Nafs shayton asir qildi odam og'lin,
Shuturlayin bog'lab oldi ikki qo'lin,
Na mushkuldur o'ng-u so'lni bilmay yo'lin,
Vo darig'o hasrat bilan borg'um mano².

U dunyo g'amini yegan kishi nafsdan tiyilishi lozim. “Haq yo'lida ko'zyosh to'kmaganlar”, “tor lahaddin qo'rqmaganlar”, “Fir'avn, Qorun kabi shayton so'zin mahkam tutganlar” oxiratda ham do'zax o'tida yonadilar. Yassaviy: “Nafsdin kechib haq amrini qilolmadim, o'lub borsam hasrat menga yetar, do'stlar”, deganda ham aynan shu nafsning inson boshiga soladigan azoblarini nazarda tutgan. “alloh degan shavq sharobin totar, do'stlar” deganda esa haqiqiy oshiqqlarning jannat bilan siylanishini aytgan. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, mumtoz adabiyotning zabardast vakillari talqinida nafs tushunchasi keng yoritilgan va bu mavzu hali hanuz adiblarimiz ijodida keng ko'lamli ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Adabiyotlar:

1. Yusuf Xos Hojib .Qutadg'u bilig. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. B.556 450- bet
2. Yassaviy. Devoni hikmat. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992. – 120 b
3. Komilov Najmiddin. Tasavvuf. – T.:”Movarounnahr” –“O'zbekiston”, 2009. – 447 b

¹ Yassaviy. Devoni hikmat. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992. – B.35.

² Yassaviy. Devoni hikmat. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992,12-hikmat.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14784878>

DEPENDENCE OF HYPERSOUND PROPAGATION SPEED ON MOLECULAR MASS AND TEMPERATURE

Burkhonov B.N., Usarov A.A.

ZARMED University of Samarkand, Uzbekistan

Samarkand State Medical University,

Samarkand, Uzbekistan

Optical methods provide an opportunity to obtain comprehensive information about the structural changes in liquid molecules.

Key words: *Hypersound, molecular mass, scattering, liquid, alcohols, temperature, pressure, spectrum, intermolecular interaction.*

The molecular theory of the liquid state significantly lags behind the development of theories for gases and solids.

theories of gases and solids.

A great contribution to the study of the liquid state can be made by clarifying the nature of structural changes in liquid molecules under different state parameters.

Optical methods provide an opportunity to obtain comprehensive information about the structural changes in liquid molecules.

The aim of this work is to study the manifestation of changes in structure and intermolecular interactions on the Mandelstam-Brillouin light scattering spectra and on hyperacoustic parameters at different state parameters.

Normal alcohols have been the subject of acoustic studies many times. However, the studies have mainly focused on ultra-acoustic parameters. Hyperacoustic parameters with state parameter variations have not been sufficiently

studied. In [1], the acoustic properties of a number of alcohols were studied in the temperature range of 180-293 K. It was shown that in strongly associated liquids, including normal alcohols, at frequencies up to 10 GHz, the structural relaxation mechanism predominates in sound absorption due to the redistribution of intermolecular hydrogen bonds.

A helium-neon (He-Ne) laser served as the light source.

The speed of hypersound is determined by the shift of the Mandelstam-Brillouin scattering spectrum with the formula:

$$\vartheta_{\Gamma 3} = \frac{\Delta\nu \cdot c \cdot \lambda}{2 \cdot n \cdot \sin \frac{\theta}{2}} \quad (1)$$

Where, $\Delta\nu$ is the displacement of the Mandelstam-Brillouin components (cm^{-1}), c is the speed of light, λ is the wavelength of laser radiation, n is the refractive index of the liquid, $\frac{\theta}{2}$ is the scattering angle

In order to study the relationship between the sequential change of structure and hyperacoustic parameters, as well as the influence of complex formation through hydrogen bonding on them, ten normal alcohols were studied at different temperatures.

The increase in molecular weight of alcohols in the homologous series corresponds to an increase in hypersonic speed, which is nonlinear.

$$\vartheta_{\Gamma 3} = \sum_{i=1}^n \vartheta_i \prod_{i \neq j} \frac{\mu - \mu_i}{\mu_1 - \mu_j} \quad (2)$$

Where μ_1 and μ_j are the molecular masses of alcohols with known hypersonic speeds, ϑ_i are the hypersonic speeds related to the molecular masses μ_1 and μ_j , ϑ_i is the hypersonic speed calculated from the Madelstam-Brillouin spectra, corresponding to molecular weight μ .

The results of measurements of the propagation speed of hypersound at different molar masses (μ) are shown in Fig. 1.




Fig. 1.

Dependence of the speed of hypersound on the molecular weight of a number of alcohols.




Fig. 2.

Dependence of the hypersonic speed of a number of alcohols on temperature.

As the temperature increases, the hypersonic speed decreases (Fig. 2). This decrease is qualitatively the same in all alcohols, and the tendency is that the higher the temperature, the closer the hypersonic speeds in these alcohols. The dispersion value for the first members of the homologous series is small, however, for higher members there is a tendency to increase

As we know, aliphatic alcohols are typical representatives of associated liquids with intermolecular hydrogen bonds. An increase in pressure leads to an increase in the number of H-bonds. This is consistent with Le Chatelier's principle / 2 /, according to which H-bonds reduce the volume occupied by molecules, therefore their formation is facilitated by those processes that lead to a decrease in the volume per molecule / 3 /.

An increase in temperature, on the contrary, leads to the destruction of associates. The results of experiments showed that with an increase in temperature, the speed of hypersonic in normal alcohols decreases nonlinearly, and at high temperatures, the ends of the curves of the dependence v_{T_3} on T at 450 K approach each other. It can be concluded that at high temperatures and pressures, the quantitative difference in the speed of hypersonic in normal alcohols tends to decrease. We associate such a tendency in the case of an increase in temperature with the destruction of the probability of the formation of H-bonds.

Literature.

1. Khabibullaev P.K. Study of acoustic relaxation in liquid mixtures. Abstract of Dis. Doctor of Physical and Mathematical Sciences. Novosibirsk. 1971. Pp. 1-36.
2. Yarood A. Investigation of rates and mechanisms of orientational motion. New York. – 1993. -340 p.
3. Atakhodjaev A.K., Ganiev F., Burkhonov B.N. Hyperacoustic parameters of nitrobenzene and aniline under various external conditions. Collection of scientific articles. Spectroscopy of condensed media. Samarkand 1994. – 58-61 pp.
4. Xudoykulova Sh. N.; Burkhonov B. N. Hyperacoustic parameters of a series of alcohols at different state parameters. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*. ISSN: 2249-7137, Vol. 11, Issue 11, November 2021, pp. 892-895.
5. Burkhanov B. N., Usarov A. A. Anomalous effect in the thermal motion of a liquid molecule near the solidification temperature. *Multidisciplinary Scientific Journal*, February, 2024, 115-119 pp.
6. Burkhonov B.N., Asatullaev A.A. Application of lasers in surgical procedures and for improving vision, as well as cleaning clogged arteries. Abstract book of the II international student conference "digitalization- the future of medicine" Tashkent - 2024, 163-167 pp.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14784896>

ИССЛЕДОВАНИЕ КИНЕМАТИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК ВТОРИЧНЫХ ЧАСТИЦ ПРИ HeC -СТОЛКНОВЕНИЯХ

к.ф.-м.н. А.А. Усаров *,

Самаркандский государственный медицинский университет

amattou@rambler.ru

Аннотация: Исследование ядерно-ядерных взаимодействий высоких энергий является экспериментальной основой физики высоких энергий.

Ключевые слова: ядро, столкновение, импульс, энергия, протон, пи-мезон, модель, ФРИТИОФ, угол выхода, кинематика, фундаментальный, одиночная теория.

В данной работе исследовались кинематические характеристики протонов и отрицательных пионов, образующихся в неупругих столкновениях ядер ${}^4\text{He}$ с ядром ${}^{12}\text{C}$ с импульсом 4,2 ГэВ/с. Метод сбора экспериментальных статистических данных представлен в [1,4], а полученные экспериментальные данные сравниваются с теоретическими расчетами модели FRITIOF [2-5].

Существует кинематическая связь между импульсом и углом участвующих быстрых протонов. Однако распределение импульса и угла не было включено в анализ физических данных, полученных в ходе эксперимента. Также, расчетным путем были получены величины $P < 0,30$ ГэВ/с, $P > 3,0$ ГэВ/с и $< 4^\circ$. Разделение участвующих протонов позволяет нам определить распределение углового момента и более глубоко изучить состав частиц-наблюдателей. Полученные результаты позволят повысить точность разделения частиц, участвующих в ядерных взаимодействиях. Изучение распределений

импульсов протонов, образующихся при взаимодействиях, через степень центральности столкновений также позволяет получить информацию об описании механизма столкновений.

Анализ спектров показывает, что с ростом «чистого» заряда Q происходит сдвиг распределений, то есть сдвиг энергии вторичных протонов, образующихся при столкновении. С увеличением Q энергия вторичных протонов уменьшается без какой-либо закономерности.

Известно, что спектры протонов в ядро-ядерных взаимодействиях достаточно успешно описываются приближением Глаубера в пределе сценария последовательных столкновений налетающей частицы с нуклонами ядра [3-4]. В центральной области скоростей и в области фрагментации ядра мишени, то есть при достаточно высоких энергиях, когда вклад нуклонов ядра мишени велик, может наблюдаться искажение этой картины. По этой причине интересно изучить характеристики «лидерных» и «нелидерных» адронов.

В приближении Глаубера, как и в каскадной модели, столкновения адронов с ядрами и ядер с ядрами можно представить как совокупность взаимодействий элементарных частиц. Однако в случае модели FRITIOF это не так.

Представленные в работе кинематические характеристики частиц в событиях при разных значениях степени центральности позволяют выделить области фазового пространства, которые трудно объяснить с помощью моделей. Прежде всего, анализ периферических взаимодействий позволяет проверить корректность моделирования элементарных взаимодействий. В многонуклонных взаимодействиях можно наблюдать, что коллективные эффекты являются монотонными. Если это так, например, при центральных столкновениях возникают огненные шары, содержащие все нуклоны, то кинематические характеристики частиц должны быть практически независимы от центральности столкновения.

По результатам проделанной работы можно сделать следующие выводы:

- не наблюдается существенного отклонения средних значений кинематических характеристик кумулятивных протонов, образующихся в неупругих взаимодействиях HeC. Это можно объяснить тем, что нуклонный состав ядер снарядов, поражающих цель, близок друг к другу.

- отклонения около 10–15% от модельных расчетов можно объяснить тем, что математические расчеты не учитывают факторы, которые имеют место в экспериментах.

- полученные распределения кинематических характеристик π - мезонов, образующихся в столкновениях HeC, показывают, что максимальные значения импульса и поперечных импульсов π - мезонов соответственно не превышают 600 и 370 МэВ/с.

Скорости изменяются в диапазоне $(-1 \div +4)$, а их среднее значение составляет 1,4.

Литература

1. С.Л. Лутпуллаев, К. Олимов, В.И. Петров, А.А. Юлдашев, А.А. Усаров
Инклюзивное рождение ядер трития в ^{16}O -соударениях при 3.25 А ГэВ/с, ДАН РУз, №4, 23-25 (2007).
2. С.Л. Лутпуллаев, К. Олимов, В.И. Петров, А.А. Усаров, М.Ю. Кратенко, А.А. Юлдашев. Инклюзивные сечения образования ядер ^1H , ^2H , ^3H в ^{16}O -соударениях при 3.25 А ГэВ/с, ДАН
3. Агакишев Г. Н. , Канарек Т. , Кладницкая Е. Н. // Методика выделения взаимодействий на углерод при освещении пропановой камеры легкими ядрами. // Сообщение ОИЯИ. -1-83-662. – Дубна.- 1983.- 9с.
4. Симиэль , Бацович , Агакишиев Х.Н. , Кладницкая Е.Н. , Чеплаков А.П. Влияние центральности столкновения на рождение отрицательных частиц в взаимодействиях dC , aC и CC при энергии 4,2 ГэВ/с на нуклон. З. Физ . C-частицы и поля 48,577-580 (1990).

5. Олимов К., Бекмирзаев Р.Н., Петров В.И., Худойбердиев Г.Ю., Саидов И., Султанов М.Ю., Усманов Ш., Бекмирзаева Х., Аликулов С.С. Рождение протонов в nC - столкновениях при 4,2 ГэВ /с. Международная конференция по атомной энергии наука и ее применение. Самарканд, Узбекистан, 24-28 сентября 2012 г. с.128-129.
6. Султанов М.Ю., Даминов Ф., Аликулов С.С. , Бекмирзаев Р.Н., Бекмирзаева . Х., Хол Бутаев Ш. Зависимость образования вторичных протонов и p^- -мезонов в dC , aC и CC взаимодействиях при энергии 4,2 А·ГэВ /с от степени центральности. Международная конференция «Ядерная наука и ее применение» Самарканд, Узбекистан, 24-28 сентября 2012 г. стр.131-132.
7. Бекмирзаев Р.Н. , Султанов М.Ю. Доклады Академии наук Республики Узбекистан. 6-2011, стр. 6.
8. А.А.Усаров Механизм и конструкция зеркальных ядер трития и гелия-3 и кислород-протонных взаимодействий при импульсе 3,25 А ГэВ/с. Ташкент, 2008. 128 с.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14784916>

MUZEYLARDA GEOGRAFIK KO'RGAZMALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA UNGA INNOVOTSION YONDASHUV

Sattorova Xurshida Nurmatovna

Termiz davlat-muzey qo'riqxonasida ilmiy xodim

Annotatsiya: Ushbu maqolada muzeylarda geografik ko'rgazmalarning o'ziga hos xususiyatlari hamda ularga innovatsion yondashuv va bu orqali muzeylarga tashrif buyuruvchilar sonini ko'pyatirish qolaversa, tashrif buyuruvchilar ma'naviy ozuqa olishiga zamonaviy yondashuvlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: muzey, geografik ko'rgazma, innovatsion yondashuv, madaniy va ma'rifiy, moddiy madaniyat, raqamli madaniyat.

Аннотация: В статье рассматриваются уникальные особенности географических экспозиций в музеях и инновационные подходы к ним, позволяющие увеличить число посетителей музеев и обеспечить их духовное питание.

Ключевые слова: музей, географическая экспозиция, инновационный подход, культурно-просветительская деятельность, материальная культура, цифровая культура.

Abstract: This article discusses the specific features of geographical exhibitions in museums and an innovative approach to them, and modern approaches to increasing the number of visitors to museums, as well as providing visitors with spiritual nourishment.

Keywords: museum, geographical exhibition, innovative approach, cultural and educational, material culture, digital culture.

Kirish. Hozirgi kunda jamiyat hayotida, xalqni fan va madaniyat bilan yaqindan tanishuvida, ilm-fan va madaniyat rivojida, shuningdek xalq maorifida muzeylarning o'rnini tabori o'sib bormoqda. Mustaqillik tufayli respublikamizda muzeylarga bo'lgan e'tibor yanada oshdi.

Inson tinimsiz go'zallikka intiladi, go'zallikni ijod qilmasdan, undan ma'naviy-ruhiy zavq olmasdan va shu orqali o'z turmushini bezatmasdan yashay olmaydi. Dunyodagi barcha xalqlar kabi o'zbek xalqi ham juda qadim davrlardan buyon xalq ruhiyati, turmush sharoitlarini o'zida aks ettiruvchi amaliy san'at asarlarini yaratib kelgan. Tabiiyki, moddiy madaniyat mahsuli bo'lgan xalq amaliy san'at asarlari ijtimoiy hayotning bir bosqichidan ikkinchisiga meros bo'lib o'tib, avlodlarning beqiyos madaniy boyligiga aylanib boraveradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Muzeylar madaniy-ma'rifiy muassasa hisoblanib, ularning uning vazifasi tarixiy hujjatlar, madaniy va ma'naviy yodgorliklarni to'plash, tabiiy boyliklardan namunalar jamlash va saqlash, ularni ilmiy jihatdan o'rganib ko'rgazmalarga qo'yish va keng xalq ommasiga havola qilishdan iborat. Muzeylar aholining keng tabaqalari o'rtasida madaniy-ma'rifiy ishlarni olib boradi. Muzeylar faoliyati xalqning tarixiy taraqqiyot jarayonida rivojlanib borishi, qo'lga kiritgan yutuqlari hamda qoldirgan boy madaniy-ma'naviy merosi xususida juda katta bilimlar beradi. Muzeylar madaniy-ma'rifiy muassasa sifatida ommaning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, ularni ma'naviy kamolotga yetkazishning eng yetakchi vositalaridan hisoblanadi.

Bugungi kunda yurtimizda yangi-yangi muzeylarning tashkil etilishi, poytaxtdagi eng yirik va nufuzli Temuriylar davri tarixi, qatag'on qurbonlari xotirasi, mamlakatimiz janubida joylashgan Termiz davlat-muzey qo'riqxonasini ochilishi esa hukumatimiz tomonidan muzey va muzeyshunoslik sohasida nihoyatda katta ishlarning amalga oshirilayotganidan dalolat beradi. Yangi muzeylarning tashkil etilishi bilan bir qatorda shu vaqtgacha ham faoliyat ko'rsatib turgan barcha kattakichik muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash, milliy istiqloq ruhida qayta tashkil etish masalasiga ham alohida e'tibor bilan qaralmoqda. Barcha viloyat hududlarida

joylashgan boshqa muzeylar faoliyatida ham yangilanish, yaxshilanish sari qadam qo'yilayotgani sezilib turibdi.

Muzeylar faoliyatini yaqindan o'rganish, ularning mazmun va ma'no jihatdan rang-barang turlarini ajrata bilish, xalq ommasi orasida keng targ'ib etishning xilma-xil usullarini joriy qilish mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi. Mavzuning dolzarbligi yana shunda ko'rinadiki, ijtimoiy-madaniy taraqqiyotning hozirgi bosqichida muzeylar faoliyatini umumiy tarzda tahlil etish, undan xulosalar chiqarish juda muhimdir.

Muhokama. Muzeyning ko'rgazma maydonida muzey faoliyatining barcha sohalariga innovatsiyalarni joriy etishning zamonaviy tendentsiyalari eng faol qo'llaniladi. Hozirgi kunda muzeylarga geografik ko'rgazmani interaktiv va tashrif buyuruvchi uchun jozibador qiladigan, zamonaviy tashrif buyuruvchi talab qiladigan keng turdagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari mavjud. Bundan tashqari, bunday texnologiyalar qiziqish uyg'otishi va tashrif buyuruvchining ko'rgazma bilan gid yordamisiz tanishishiga yordam berishi mumkin. Bugungi kunda muzeyga tashrif buyuruvchilarning "axborot yolg'izligi" muammosi qayd etilgan. Ushbu muammoni bartaraf etish va tashrif buyuruvchilarga ko'rgazmaga qo'yilgan ashyolar haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lishlari uchun muzeylar multimedia va boshqa interaktiv texnologiyalarni o'z ichiga olgan holda ko'rgazma maydonlarini modernizatsiya qilinoqda. Shu bilan birga, barcha toifadagi tashrif buyuruvchilar, raqamli texnologiyalardan samarali foydalana olmaydi. Masalan, keksa avlod vakillari "*raqamli madaniyat*" innovatsiyalarini idrok etishga to'liq tayyor emaslar [1]. Bu holda muzey xodimlarining vazifasi tashrif buyuruvchilarga innovatsiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlarini tushunishga yordam berishdir. Shu bilan birga, yana bir muammo bor: uyushgan guruhlarda muzeyga tashrif buyurganingizda, gidsiz ishlashning iloji yo'q. Shu munosabat bilan o'rinli savol tug'iladi: ekskursiya o'tkazishda ko'rgazmaga kiritilgan yangiliklardan ekskursiya gid tomonidan qanday foydalanish kerak? Bunday ko'rgazma maydonlarida ekskursiyalarni o'tkazish metodologiyasi va texnikasi hali shakllanish bosqichida. Masalan, 2020- yilda

Kuzbass davlat o'lkashunoslik muzeyi tabiat bo'limining keng ko'lamli reekspozitsiyasi bo'lib o'tdi. Yangi ko'rgazma maydoni zamonaviy tashrif buyuruvchilar talablaridan kelib chiqib qurilgan.

Bugungi kunda muzeylar turli xil raqamli texnologiyalardan foydalanmoqda va tadqiqotchilar ularni guruhlash va tizimlashtirishga harakat qilmoqdalar. Ko'rgazma innovatsiyalarining eng keng tarqalgan turlari geografik texnologiyalar (gologrammalar, , kublar va boshqalar), xaritalash, multimedia proyektorlari va LED panellar, video devorlar, panoramali tasvirlardir. Multimedia ekranlari allaqachon muzeylar uchun an'anaviy yechimga aylangan. Bunday ekranlar ko'rgazma bilan bog'liq videoni ko'rsatishi yoki uning mazmunini yaxshiroq tushunishga yordam beradigan ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin. Panoramali tasvirlar hajmli 3D proyeksiyadir. Ushbu texnologiya tufayli tashrif buyuruvchi o'zini boshqa voqelikka botganini his qiladi va sodir bo'layotgan voqealarga bevosita aloqadorligini his qiladi.

Xaritalash - bu ob'ektning o'zini o'zgartirishning optik illyuziyasini yaratadigan va ko'rgazma maydonini animatsiya qilish imkonini beruvchi uch o'lchovli tekislikka proektsiyadir. Video devorlar dinamik tasvirlar yoki videokliplarni namoyish etadi, bu sizga voqealar xronologiyasini kuzatish imkonini beradi.

Galogrammalar yordamida biz muzey ob'ektlarining uch o'lchovli tasvirini olish imkonini beramiz, ular havoda suzayotgani haqidagi illyuziyani yaratamiz [2]. Tashrif buyuruvchilar uchun eng jozibador yangilik bu to'ldirilgan reallik texnologiyasidir. Bu nafaqat muzey buyumining (yoki meros ob'ektining) 3D modelini ko'rish, balki u bilan o'zaro aloqada bo'lish imkonini beradi, shuningdek, boshqa voqelikka to'liq sho'ng'ish illyuziyasini yaratadi [3]. Brchaga ma'lum bo'lgan Kuzbass davlat o'lkashunoslik muzeyida innovatsiyalarning har xil turlari qo'llaniladi: interaktiv zonalar yaratildi, to'ldirilgan reallik texnologiyasi qo'llanildi, axborot kiosklari qo'llanildi va hokazo. Geologiya zalida interaktiv xarita yaratildi, unda ikkita stsenariy tasvirlangan. dasturlashtirilgan: 1) Kuzbassning ma'muriy-

hududiy tuzilishi; 2) Kuzbass hududida foydali qazilmalarning shakllanishi. Xarita polning interaktiv proyeksiyasidir: harakat sensorlari tufayli odam polning ma'lum bir nuqtasiga qadam qo'yganida, stsenariy ishga tushiriladi. Barcha nuqtalardan o'tib, mehmon butun stsenariydan o'tadi. Tashrifchi kerakli ma'lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun devorda xaritaga ulangan ekran joylashgan bo'lib, u tashrif buyuruvchi interaktiv xaritada nimani ko'rishini tushunarli shaklda tushuntiradi. Shuningdek, ushbu zalda asosiy ko'rgazmada mavjud bo'lgan minerallarni aks ettiruvchi gologramma vitrinasi mavjud. Displayda mineralning gologrammali 3D modeli hamda u haqidagi ma'lumotlar mavjud.

Xulosa. Shunday qilib, siz nafaqat mineralni har tomondan o'rganishingiz, balki uning jismoniy xususiyatlari haqida ham batafsil ma'lumot olishingiz mumkin. Bizning muzeylarda ham yuqoridagi innovatsion texnologiyalarda samarali foydalanilsa o'ylaymanki, muzeylarga tashrif buyuruvchilar soni sezilarli darajada oshishga erishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Клементьева, Н. В. Информационные технологии в современном музейном пространстве // Научное обозрение. – 2018. – № 1. – С. 1–5.
2. Пустовойт, Ю. В. Классифицирование мультимедийных технологий в экспозиционно-выставочном пространстве современного музея // Культурное наследие России. – 2019. – № 1. – С. 62– 67. DOI:10.24411/2308-2062-2019-00036.
3. Родионова, Д. Д. Технология дополненной реальности как перспективное направление развития музейного пространства на современном этапе / Д. Д. Родионова, С. В. Сергеев // Вестник Кемеровского государственного университета культуры и искусств. – 2015. – № 33–2. – С. 51–57.
4. Родионова, Д. Д. Актуализация культурного наследия музейными средствами для посетителей с ограниченными возможностями здоровья по

слуху / Д. Д. Родионова, С. И. Гусев, Я. И. Толкалова // Человек и культура – 2021. – № 2. – С. 72–80.

5. Емельянов, Б. В. Экскурсоведение : учебник. – Москва : Советский спорт. – 2007. – 216 с.

6. Кедрова, И. В. Специфика методики экскурсионной работы и ее совершенствование // Научный результат. Технологии бизнеса и сервиса. – 2016. – № 2. – С. 22–27.

7. Шакиров, А. С. Проблемы внедрение стационарных интерактивных мультимедиа систем в музейные экспозиции. Риски и решения / А. С. Шакиров, А. Ф. Набиуллин, И. Г. Мухтов // Вестник Томского государственного университета. Культурология и искусствоведение. – 2018. – № 31. – С. 235–242.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14784928>

OTA ONALARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK BILIMLARINING TA'LIM SAMARADORLIGIGA TA'SIRINI OSHIRISH MAQSADIDA O'TKAZILGAN TAJRIBA ISHLARINI O'RGANISH VA TAHLILI

Sattorova Muxlisa Akram qizi

TDPI Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola ota onalarning pedagogik-psixologik bilimlarining ta'lim samaradorligiga ta'sirini oshirish maqsadida o'tkazilgan tajriba ishlarini o'rganish yo'llariga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Oila rasmi, test, pedagog, "men", tafsiqot, topshiriq.

Hozirda ko'plab psixodiagnostik vositalar testlar, metodikalar, so'rovnomalar mavjud bo'lib ulardan o'quvchi shaxsining oilaviy munosabatlarini o'rganishda keng foydalanilmoqda. Shunday tashxis vositalaridan biri bu "Oila rasmi" nomi bilan keng tarqalgan proyektiv testidir. Eston psixologi G.Xomentaukas tomonidan ishlab chiqilgan mashhur "Oila rasmi" testi kattalarga dunyoni bola ko'zi bilan ko'rishga yordam beruvchi vositadir. Bu test bolaning o'z oilasiga bergan shaxsiy bahosi haqida, oila a'zolari bilan bo'lgan munosabatlari, bola nimalarni idrok qila olmasligi, nimalarni kuchli xayajon bilan his qilishi haqida tushuncha beradi. Nimalar bolani ongsiz ravishda xavotirga solsa, xuddi shu narsalar bolalarning rasmlarida ifodalanadi. Oila rasmi bola shaxsining psixologik portretidir. Bu testni 3 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalarda qo'llash mumkin. Psixologlar bu testdan bolaning oiladagi "Men"ini o'rganish maqsadida foydalanadilar. Bu testni o'tkazish pedagogic va psixologik amaliyotda qulay va ommabop. Bu testni o'qituvchilar, ta'lim muassasalari psixologlari va hatto ota – onalar o'tkazishlari mumkin.

